



O'QUVCHILARGA XALQ MUSIQA IJODINI O'RGATISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi
Odilova Mushtariy*

ANNOTATSIYA. Mavzuning dolzarbligi shundaki, musiqa o'qituvchisi bo'lib yetishar ekanmiz, umumta'lim maktabarida musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarga xalq musiqaijodini o'rgatishning tarbiyaviy ahamiyati haqida o'quvchilarni musiqiy bilimni yuksaltirish.

Musiqiy ta'limni o'quvchilarga xalq musiqaijodini o'rgatishning tarbiyaviy ahamiyati haqida. Musiqa madaniyati darslarini o'quv dasturi asosida tashkil etish.

Kalit so'zlar: Milliy qadryatlar, vokal, ovoz diapazoni, musiqiy qobiliyat, musiqiy diapazon, musiqa madaniyati

O'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra hayotiy tajribaga boy, fanlarga qiziquvchan bo'ladilar. Diqqat-e'tibori turg'unlashgan bo'ladi. Jiddiy bo'lgan masalalar ustida fikrlash, hajm jihatdan kattaroq bo'lgan musiqa asarlarini eshitishga qodir bo'ladilar, izlanish, mushohada qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu xususiyatlarni barchasini o'qituvchi nihoyatda o'ylab, oqilona ish tutishi lozim. Har bir darsdan unumli foydalanishi lozim. Bundan maqsad bolalarni tezroq dasturdagi musiqa asarlariga, dars uslubiga, musiqa san'atiga qiziqishidan iboratdir.

O'quvchilarining vokal – xor malakalari bir xilda rivojlangan bo'lmaydi. Chunki, ba'zi boshlangich sinflarda musiqa fanidan mutaxassislar dars berishmaydi. Mutaxassis ish olib borgan joyda esa o'quvchilar sof unisonda kuylash, ansambl va qo'shiqlarni me'yoriga yetkazib, ikki ovozda kuylash darajasiga ega bo'ladilar.

O'quvchilarining ovoz diapazoni (do1 - mi2). 4-sinfda ham o'qituvchilarni diffirensial guruhlarga bo'lib o'tkazish lozim bo'ladi. Chunki, ularning bu davrda ovozlari jarangdor, yoqimtoy, kuliminatsion rivojlangan davri hisoblanadi. Shuning uchun, darsda ko'proq kuylatish maqsadga muvofiqdir. Bunga misol qilib, kompozitor N.Norxo'jayev va shoir P.Mo'minni «Yaxshi bola» «Oq paxta terdik», kompozitor Sh.Yormatov va shoir S.Barmoyevni «Sog'lom avlod qo'shig'i», kompozitor M.Nasimov va shoir Ya.Qurbonovni «Bizdan sizga kim kerak?» qo'shig'ini keltirishimiz mumkin



Kalendar – mavzuli reja tuzganda yuqorida aytilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda yil chorak mavzulari hisobga olinib, reja tuziladi. O‘qitish davomida quyidagi bosqichlarga e‘tibor berish kerak. Birinchidan, fanlararo aloqa metodi. Boshqa fanlardan olingan bilim va malakalardan foydalanish. Masalan, ona tili va adabiyot, tasviriy san‘at, O‘zbekiston tarixi, tabiatshunos, matematika va boshqalar.

Ikkinchidan, o‘quvchilarni musiqiy qobiliyatini o‘stirish, sof unisonga erishish, jumla boshida nafas olib, jumla oxirigacha rejalab yetkazish, lad haqida ma‘lumot, o‘lchovlarni bilish, notalarga qarab quyilay olish.

Uchinchidan: musiqa savodiga qiziqitira olish; musiqa savodining eng muhim ahamiyati – qo‘shiqlarni notalar nomlari bilan kuylatish, tinglash uchun berilgan asarlarni tahlil qila olishdir.

Qo‘shiq o‘rgatishda dirijorlik uslubida fortepiano cholg‘u asbobidan unumli foydalanish lozim. Ovozlarini maromiga tushirib kuylash uchun qo‘shiq parchalaridan mashqlar tanlab kuylash lozim. Mashqlarni ma‘lum tizimga solib kuylash kerak. O‘quvchilarda musiqa tinglashni ahamiyati katta, chunki bunda o‘quvchilar xalq musiqa ijodi o‘zbek xalq musiqasining ommaviy janrlari bilan tanishadilar.

Musiqa tinglash uchun o‘zbek xalqining ommaviy qo‘shiqlaridan boshlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, «Alla», «Omonyor», «Boychechak», «Dilxiroj», «Tanovor», «Lolacha», «Kovushim», «Chorgoh» va boshqalar. O‘quvchilarda shuningdek, xalq musiqa ijodining ommaviy janrlari, kasbiy musiqa, mehnat va mavsum qo‘shiqlari haqida ma‘lumot berish lozim. Xalq musiqasining ommaviy janrlari xalqimiz orasida keng tarqalgan bo‘lib, og‘izdan-og‘izga, avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda, bu asarlar mazmunida orombaxsh, yoqimli, mayin allalar, pandu nasihat, axloq-odob haqida qo‘shiqlar, yalla, laparlar kiradi. Bularga misol qilib «Olmacha anor», «Oyijon», «Qizgina», «Hey, lola», «Ishga chiqing kelinoyi» kabi asarlarni tinglash mumkin o‘quvchilarini ayniqsa, to‘garak va ommaviy ishlarga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqimizning milliy qadriyatlarini yoshlar ongiga singdirishda keng imkoniyatlar yaratilgan bugungi kunda xalq qo‘shiqlaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Musiqa darslarida xalq qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy shakllantirish muammosi hozirgi kunda nihoyat dolzarb muammodir. Ma‘naviy boylik sifatida xalq qo‘shiqlarning imkoniyatidan ta‘lim jarayonida unumli foydalanish yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zarurati sezilmoqda.



Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirishda musiqa darslari katta imkoniyatlarga ega. Zero, xalq qo'shiqlari xalqning ezgu niyatlari, orzu istaklari va ichki tuyg'ulari, uning urf-odatlari va an'analari bilan bevosita bog'langandir.

Muammoga oid 'edagogik-'sixologik adabiyotlarni o'rganish va mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarga beriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmunini belgilab olish va uning tub mohiyatini ochib berishga imkon yaratadi.

Amalga oshirilgan tadqiqot ishlari xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy shakllanganlik darajasi muayyan mezonlar orqali aniqlandi.

Musiqa darslarida xalq qo'shiqlarini o'rganishda muayyan sinf o'quvchilarining 'sixologik xususiyatlariga ko'ra o'quv materiallari tanlandi va tarbiyaning taosirchan metodlari qo'llandi.

O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasida tadqiqot farazining to'g'riligi tasdiqlandi. Ya'ni, xalq qo'shiqlarini o'rganish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini tarbiyalash, xalq qo'shiqlaridan unumli, meoyorlangan holda, maqsadga muvofiq foydalanish, muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, tahliliy va hissiy idrokni rivojlantirgan holda samarali natija beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun cho' etilgan «Musiqa madaniyati» dasturidan o'rin olgan asarlarga mahalliy hududlarda keng foydalaniladigan asarlarni qo'shimcha tarzda kiritish va o'quvchilarning re'ertuarini xalq qo'shiqlari bilan boyitish hamda xalq udumlari va turli an'alaridan foydalangan holda o'quv materiallarini to'ldirish o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirishni jadallashtiradi.

a) yuksak ma'naviy-axloqiy mazmun va badiiy ifodaga ega bo'lgan xalq qo'shiqlari namunalaridan unumli foydalanishning ilmiy asoslangan samarali usullarini taklif qilish;

b) musiqa darslarida xalq qo'shiqlarini turli faoliyatlar orqali idrok etishlariga 'edagogik shart-sharoit yaratib berish hamda tahliliy idrok va mustaqil fikrlash yo'llaridan foydalanish;

v) o'quvchilarning xalq qo'shiqlariga bo'lgan qiziqishi, intilishi, ijodiy faolligini oshirishga imkon beradigan ta'lim-tarbiya usullaridan foydalanish.

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida shunga ishonch hosil qildikki, o'quvchilarning musiqiy-estetik va ma'naviy-axloqiy tarbiyasini amalga oshirishda musiqa o'qituvchisi alohida o'rin tutadi. SHuning uchun ham musiqa o'qituvchilarining umumiy, kasbiy madaniyati, xususan, musiqaga oid bilimi, xalq qo'shiqlarini ko''



bilishi, re'ertuarining boyligi, ta'lim-tarbiyaning eng zamonaviy metodlar bilan qurollanganligi muhim ahamiyatga ega. Biz bu sohada qo'llash uchun zarur bo'lgan yangi metodlar, o'qituvchi faoliyati samaradorligini oshiruvchi tavsiyalar berishga harakat qildik. Xalq qo'shiqlarining yaratilish tarixi, ulardan xalq udumlari va an'analarida qanday foydalanilganligi, matndan kelib chiqadigan ma'naviy-axloqiy xulosalarning salmog'i va ahamiyatini his etish, o'yin elementlaridan foydalanish yo'llari va turli muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, tahliliy hamda hissiy idrok yo'llarini ko'rsatishga intildik.

O'qituvchilarning o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy shakllantirish imkoniyatlari ularning bir qator faoliyatlarida aks etganligini ko'rdik.

Musiqqa o'qituvchisi, bizningcha, quyidagi shaxsiy sifatlariga ham ega bo'lishi lozim: maqsadga intilish, talabchanlik, bosiqlik, ruhiy ko'tarinkilik, pedagogik taktika, o'z kasbi va o'quvchilarga mehri bo'lish.

Amalga oshirilgan tadqiqotimiz o'zbek xalq qo'shiqlarini o'rganish jarayonida biz taklif qilgan 'edagogik uslub va metodlardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish natijasida 1-7-sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy shakllanganlik dinamikasini kuzatib borish imkonini berdi.

«Musiqqa madaniyati» darslarida o'quvchilar bevosita ishtirok etadigan barcha faoliyatlar (musiqqa tinglash, jamoali ijro, turli harakatlar bajarish, musiqqa ijodkorligi va boshqalar) jarayonida xalq qo'shiqlaridan foydalanish ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanish jarayonini tezlashtiradi va bu madaniy tamoyillarning chuqurroq singishiga imkon beradi.

Qo'shiqlarning yakkaxon, duet, faqat qizlar, yoki yigitlar jamoasi bilan kuylanishi o'quvchilarning xalq qo'shiqlarini turli variantlarda idrok qilishlari va bu asarlardan ma'naviy-axloqiy xulosalar chiqarib olishlariga imkon beradi.

Urf-odatlar va marosimlarning mazmuni musiqqa materiallarini tahliliy idrok qilishda tahlil uslublaridan, ularni xulosalashda fikrlarni yig'ish-sintez usullaridan foylanish va xulosalarning mantiqan to'g'riligini hayotiy voqeliklar bilan taqqoslash orqali amalga oshirish — o'quvchilarning xalq asarlaridan to'g'ri xulosa chiqara olish qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

O'quvchilarning xalq qo'shiqlarini o'rganish orqali ma'naviy-axloqiy madaniyatining qay darajada o'sib borishini kuzatib aniqlab borishda aniq mezonlarni belgilab olish, beriladigan javoblarni aniqlashda so'rovnoma usulidan foydalanish va asarlarni o'rganish yakunida ma'naviy-axloqiy madaniyatni aniqlashga imkon beruvchi ilmiy asoslangan tashhisli ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq keladi.



Biz amalga oshirilgan tadqiqot natijasida quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarni ma'naviy-ahloqiy shakllantirish 1-7-sinflarda izchil tizim asosida olib borilishiga erishish.

2. O'quvchilarning xalq qo'shiqlariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida turli tadbirlar o'tkazishga erishish.

3. Xalq qo'shiqlarini o'rganishni xalq udumlari, an'analari, urf-odatlarini, marosimlari bilan bog'lagan holda amalga oshirilishini ta'minlash

4. Har bir o'rganiladigan asarning sheoriy matnini ifodali o'qish va taohliil qilish orqali uning mazmunida mujassam bo'lgan ma'naviy-axloqiy «mag'izini» ko'rsatib berish va undan turli holatlarda bahramand bo'lish uchun tegishli sharoitlarni yaratish.

«Musiqqa madaniyati» darslarida o'quvchilar bevosita ishtirok etadigan musiqa tinglash, jamoali ijro, turli harakatlar bajarish, musiqa ijodkorligi kabi faoliyatlarni rejali tarzda tashkil etish.

Xalq qo'shiqlari asosida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy shakllantirish mavzusida hozirgi kunda res'ublikamiz miqyosida olib borilayotgan ishlar keng ko'lamli bo'lib, ularni quyidagicha yo'nalishlarga ajratish mumkin:

1. Respublika oliy va o'rta maxsus musiqa o'quy yurtlarida amalga oshirilayotgan ishlar.

2. Jahon va Res'ublika miqyosida o'tkazilayotgan ko'rik tanlovlar hamda bayramlar.

3. CHop etilayotgan ilmiy-metodik adabiyotlar, xalq qo'shiq va kuylarini to'lash.

4. Xalq dastalari va ularning dasturlaridan foydalanish.

5. Umumiy o'rta ta'lim maktablari dastur va darsliklarida xalq qo'shiqlarining o'rnini belgilash.

6. Xalq qo'shiqlari vositasida yoshlarni ma'naviy-axloqiy shakllantirish sohasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar va ulardan unumli foydalanish.

Res'ublika miqyosida xalq qo'shiq va kuylaridan yoshlarni ma'naviy-axloqiy shakllantirish vositasi sifatida foydalanish sohasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin bu sohada hali echilmagan muammolar mavjud.

Res'ublikamiz umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borilgan ko'p yillik kuzatuvlar, suhbatlar, fikr almashuvlar natijasida xalq qo'shiqlaridan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy madaniyatini rivojlantirish masalasining qo'yilishi borasida shunday fikrga keldik:



1. Xalq qo'shiqlari va ularni o'rganish hali etarli darajada yo'lga qo'yilmagan:
2. Aksariyat musiqa o'qituvchilari xalq qo'shiqlarini o'rgatsalarda, undan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish yo'llarini bilmaydilar va bu tabiatan, o'z-o'zidan yuzaga keladigan jarayon deb qaraydilar.
3. Ilg'or tajribali musiqa o'qituvchilarining bu borada olib borayotgan ibratli ishlarini etarlicha umumlashtirilmagan va keng targ'ibot qilinmagan.
4. Xalq qo'shiqlaridan ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida foydalanish chuqur ilmiy izlanishlar olib borishni, ilmiy asoslangan har tomonlama 'uxta tavsiyanomalar ishlab chiqishni talab qiladigan dolzarb muammo hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 16 yanvar. 11-son.
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining 'oydevori. T.: O'zbekistan 1997 y. 63 b.
3. O'zbekiston Res'ublikasi konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston 1992 y. 48 b.
4. O'zbekiston res'ublikasi ta'lim to'g'risidagi qonun. «Maorifat» 1997 y.
5. Sog'lom-avlod bizning kelajagimiz. T. I. Sino 2000 y.
6. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: O'zbekistan 1998 y. 480 b.